ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 06.07.2026 · Accepted: 01.08.2026 · Published: 04.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/4cr9yq93

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

O‘zbek milliy maqom ijrochiligida doira usullarining badiiy-strukturaviy va metroritmik xususiyatlari

(Artistic-Structural and Metrorhythmic Features of Doira Rhythmic Patterns in Uzbek National Maqom Performance)

Sherzod Nazarov

Department of Vocal and Instrumental Performance
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: Sherzodnazarov199207@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Shashmaqom ijrochiligida doira usullarining metroritmik tashkil topishi, ijro jarayonidagi badiiy vazifasi hamda ustoz-shogird ta’limida o‘rgatilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor usulning oddiy takt o‘lchovidan farqi, zarblarning kuchli va kuchsiz hissalarga taqsimlanishi, og‘zaki mnemonik bo‘g‘inlar vositasida yodda saqlanishi va kuy dramaturgiyasiga ta’siriga qaratilgan. Maqola muallifning doira bo‘yicha pedagogik kuzatuvlari, Shashmaqomning Mushkilot va Nasr bo‘limlariga doir tavsiflar, notalashtirilgan maqom namunalari hamda ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o‘rganishga asoslanadi. Tasnif, Tarje’, Gardun, Muxammas va Saqil kabi cholg‘u qismlari bir xil ritmik mezonga bo‘ysunmasligi, usulning davriy tuzilishi ijrodagi frazalash bilan birga izohlanishi kerakligi yoritiladi. Buxoro va Xorazm an’analarida uchraydigan zarb nomlari muayyan ijro muhiti hamda o‘qitish uslubini anglash uchun ahamiyatli ekanligi ko‘rsatiladi. Shuningdek, doira sadosining tinglovchi hissiyotiga ta’siri muallif kuzatuvlari sifatida qayd etilib, bunday taassurotlar klinik yoki eksperimental dalil o‘rnida talqin qilinmasligi belgilab beriladi. Yakunda talabalar uchun usulni eshitish, talaffuz qilish, amaliy chalish va maqom jumlasi bilan muvofiqlashtirishni birlashtiruvchi metodik takliflar taqdim etiladi. Mazkur yondashuv ritmik aniqlik bilan badiiy erkinlik o‘rtasidagi muvozanatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Shashmaqom, doira, usul, zarb, Mushkilot, Nasr, Tasnif, Tarje’, Gardun, Muxammas.

Abstract

This article examines the metrorhythmic structure, artistic function, and teaching of doyra rhythmic cycles in the Uzbek Shashmaqom performance tradition. Particular attention is paid to the distinction between a complete usul cycle and a written time signature, the distribution of strong and weak strokes, the role of orally

transmitted mnemonic syllables, and the relationship between rhythm and musical dramaturgy. The discussion draws on the author's pedagogical observations, scholarly literature on maqom, descriptions of the Mushkilot and Nasr sections, and notated examples from the traditional repertory. The study considers Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas, and Saqil as pieces whose rhythmic organization should be understood in relation to melodic phrasing rather than through a single simplified metric formula. It also discusses the terminology and teaching practices associated with the Bukhara and Khorezm performance environments. Rhythmic syllables are treated as practical devices connecting listening, memory, motor coordination, and ensemble interaction. The emotional atmosphere created by the doyra is addressed through the author's observations, while clearly distinguishing subjective experience from experimentally established psychological effects. The paper proposes a teaching sequence that combines attentive listening, vocalized rhythmic patterns, technical practice, and performance together with a maqom melody. This source-based approach supports stylistic continuity without confusing mechanical accuracy with expressive musical understanding.

Keywords: Shashmaqom, doyra, usul, rhythmic stroke, Mushkilot, Nasr, Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas.

Аннотация

В статье рассматриваются метроритмическая организация, художественные функции и педагогические особенности доирных усулей в исполнительской традиции Шашмакома. Основное внимание уделяется различию между полной ритмической формулой и её нотной тактовой записью, соотношению сильных и слабых ударов, применению устных мнемонических слогов и роли ритма в развитии музыкальной формы. Материалом исследования послужили педагогические наблюдения автора, опубликованные работы по теории макома, описания инструментальных и вокальных разделов Шашмакома и нотированные образцы. Сопоставляются особенности таких разделов, как Тасниф, Тардже, Гардун, Мухаммас и Сакил, а также способы преподавания ударных формул в бухарской и хорезмской исполнительских традициях. Показано, что звуковые обозначения ударов помогают студенту соединить слуховое восприятие, координацию рук и ощущение музыкальной периодичности. Отдельно обсуждается роль доиры в создании эмоциональной атмосферы исполнения. Личные впечатления исполнителя и педагога при этом отделяются от научно подтверждённых психологических результатов, поскольку специальное экспериментальное измерение в данной работе не проводилось. В качестве практического предложения сформулирована последовательность занятий: слуховое освоение усуля, его ритмическое проговаривание, техническая отработка и

совместное исполнение с мелодическим материалом макома. Такой подход способствует сохранению традиционного стиля и развитию осмысленной ритмической культуры молодых исполнителей.

Ключевые слова: Шашмаком, дойра, усуль, удар, Мушкилот, Наср, Тасниф, Тардже, Гардун, Мухамма.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy merosimizning yuksak namunasi bo‘lgan maqom va baxshichilik san’atini chuqur o‘rganish, uni yosh avlod ongiga singdirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu ezgu maqsad yo‘lida tashkil etilgan Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti maqom an’analarini chuqur tadqiq qilish va ularni amaliyotga joriy etishga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Cholg‘u ijrosida alohida o‘rin tutuvchi doira – zarbli cholg‘ular turkumiga mansub bo‘lib, unda nafaqat ritmik aniqlik, balki hissiy ifoda, maqomiy tafakkur va jamoa bilan uyg‘unlikda ijro etish qobiliyatlari talab etiladi. Biz ko‘p yillik ijrochilik va pedagogik faoliyatimiz davomida maqom asarlaridagi doira partiyalarining strukturasi, vazn qoliplari va ularning asar ichki dramaturgiyasidagi ruhiy ta’sir kuchini tizimli ravishda o‘rganishni maqsad qildik. Ushbu maqolada an’anaviy doira usullarining metroritmik tizimi hamda ularning badiiy-funksional mohiyatiga oid ilmiy-amaliy xulosalarimizni bayon etamiz.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy baholash, musiqiy-nazariy va funksional tahlil metodlaridan foydalanildi. O‘zbek an’anaviy maqom ijrochiligida qo‘llaniladigan doira usullari va zarb tizimlari biz tomondan tayyorlangan “Cholg‘u ijrochiligi (Doira)” darsligi materiallari, tarixiy yozma manbalar va notalashtirilgan namunalar (“Muxammasi Ushshoq”, “Saqili Vazmin”) asosida tahlil qilindi. Ritmik o‘lchovlar va an’anaviy og‘zaki mnematik tizimlar regional maktablar (Buxoro va Xorazm) kesimida qiyoslandi.

Maqoladagi metodik qarashlar tayyorlangan nota namunalari va ijrochilikni o‘qitish tajribasi bilan bog‘lanadi. Shashmaqomning cholg‘u qismlari haqidagi

tarixiy ma’lumotlar hamda zamonaviy ilmiy nashrlar orqali usulning ritmik davr, zarblarning talaffuzi va kuy shakliga daxldor funksiyalari birgalikda baholanadi [2, 159–193-b.; 4, 32-b.; 5, 8–9-b.]. Mazkur tahlil nazariy-amaliy xarakterda bo‘lib, alohida eksperimental tekshiruv natijasi sifatida taqdim etilmaydi.

Usul tushunchasining ilmiy va badiiy mohiyati: Arab tilidan olingan “usul” atamasi “asos”, “poydevor” ma’nolarini anglatadi. Usul musiqiy asarlarning, ayniqsa maqom ijrosining ritmik poydevoridir. U pardalar bilan bir qatorda, kuy qurilishining asosiy strukturaviy omili sanaladi va kuylarni toifalarga ajratishda, ularning xarakterini belgilashda hal qiluvchi mezon bo‘lib xizmat qiladi.

O. Matyoqubov doira usulining jo‘rnavozlikdagi vazifasini vazn qolipining barqarorligi va kuy rivojining nisbiy erkinligi o‘rtasidagi munosabat orqali izohlaydi [2, 159–193-b.]. Bu talqin doirani shunchaki zarb beruvchi vosita emas, balki musiqiy vaqtni idrok etishga ko‘maklashuvchi mezon sifatida tushunishga imkon beradi.

Bizning yozma manbalarga tayanib aniqlashimizcha, ilk musiqiy ritm “Zarbi qadim” (qadimiy zarb) deb atalgan bo‘lib, u inson tanasidagi yurak urishidan ilhomlanib yaratilgan va eng oddiy “tan-tan” shaklida bo‘lgan. Tarixiy manbalarda Alisher Navoiy davrida doira va nog‘ora uchun juda ko‘plab murakkab usullar yaratilgani, sozandalar o‘z fikr-mulohazalarini, hissiy holatlarini hatto savol-javob mazmunidagi zarbli “suhbatlar” orqali yetkazganliklari qayd etilgan.

Ilk ritmning «zarbi qadim» bilan bog‘lanishi musiqiy-tarixiy adabiyotlarda uchraydigan talqinlardan biri sanaladi. Ushbu rivoyatga o‘xshash tasvirni xronologik jihatdan qat’iy isbotlangan yagona kelib chiqish nazariyasi deb qabul qilish maqsadga muvofiq emas; uni og‘zaki an’ana va musiqiy tafakkur tarixidagi tasavvur sifatida o‘rganish ehtiyotkorroq yondashuv hisoblanadi [6, 43-b.].

Mnematik belgilar va hududiy ijro amaliyoti: An’anaviy musiqiy amaliyotda usul va zarblarni mnematik (eslab qolishni osonlashtiruvchi) belgilar

orqali ifodalash pedagogik jarayonda juda samarali hisoblanadi. Bu belgilar bir vaqtning o‘zida zarbning joylashuvi, ovoz sifati va bajarilish texnikasi haqida aniq axborot beradi.

“Bum” zarbi: Doiraning markaziy qismiga uriladi va kuchli, chuqur tovush og‘irligi bilan ajralib turadi.

“Bak” yoki “Taq” zarbi: Doiraning chekka qismiga uriladi va natijada yorqin, jiringlovchi ohang yuzaga keladi.

“Ist” belgisi: Buxoro maktabida ritm oqimida yuzaga keladigan pauza yoki to‘xtash belgisini anglatadi.

Ushbu mnematik tizim hududiy ijrochilik maktablarida o‘ziga xos talaffuzga ega. Kuzatuvlarimizga ko‘ra, Buxoro uslubida doira usullari “bum-taq”, Xorazm maktabida esa “gul-taq” shakllarida ifodalanadi.

Ritmik bo‘g‘inlarda “bum” va “bak” singari ovozga taqlidiy tovushlar muhim o‘quv vositasidir: ular zarbni eshitish, og‘zaki aytish va cholg‘uda bajarish bosqichlarini bog‘laydi. Mnematik shakl faqat matn emas; uning urg‘usi, davomiyligi va sukutlari ham ustozning amaliy namoyishida namoyon bo‘ladi. Shu bois zarblarni notaga olish og‘zaki talqin o‘rnini to‘liq egallamaydi [5, 8–9-b.; 6, 43-b.].

Mushkilot bo‘limining metroritmik tasnifi: Shashmaqom majmuasining cholg‘u, ya’ni Mushkilot bo‘limi o‘zining tematik va dramatik yuksalish yo‘nalishini ifodalovchi beshta asosiy janrdan tashkil topgan bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos doira usuliga tayanadi.

Tasnif: 2/4 yoki 4/4 o‘lchovdagi doira usullari asosida qurilgan, maqomning kirish qismi sifatida metroritmik barqarorlikni ta’minlovchi, tinglovchini maqom mavzusiga tayyorlovchi barqaror va ixcham kuy shaklidir.

Tarje’: Odatda 2/4 yoki 4/4 o‘lchovli doira usullarida ijro etiladi. “Tarje’” so‘zining ma’nosi – “qaytarish” bo‘lib, u asosan maqom dramatik oqimidagi o‘tish va jonlanish vazifasini bajaradi.

Gardun: Ritmik murakkabligi bilan ajralib turadi. “Gardun” so‘zining lug‘aviy ma’nosi – “falak gardishi” bo‘lib, bu bo‘lim musiqiy-falsafiy yuksalishni ramziy ifoda etadi. Amaliyotda (ayniqsa, Sibelius kabi nota muharrirlarida) asarni aniq va qulay tarzda tushirish maqsadida uni 8/4 o‘lchov ko‘rinishida (ichki tuzilishi 2/4 + 3/4 + 3/4) umumlashtirgan holda yozish ma’qulroq ekani aniqlangan.

Muxammas: Odatda 2/4 yoki 4/4 o‘lchovli zarbda bo‘lib, “beshlik” shaklidagi tuzilmani anglatadi. Bu bo‘limda asarlarning ichki formalari (fraza va periodlar) besh qismli bo‘laklarga ajraladi.

Saqil: Odatda 2/4 yoki 4/4 o‘lchovda bo‘lib, og‘ir, mulohazali, izchil xarakterdagi musiqiy ifodani o‘zida mujassamlashtiradi. “Saqil” atamasi o‘zbek tilida “vazmin”, “bosiq” ma’nolarini anglatadi. Saqil usuli Muxammasga nisbatan kengroq tuzilmaga ega bo‘lib, Buxoro an’anasida 24 takt, Xorazm ijro an’anasida esa 16 taktgacha qisqaradi.

Bu o‘rinda yozma takt o‘lchovini butun usulning davriyligi bilan aynanlashtirmaslik kerak. Masalan, o‘quv notasi 2/4, 4/4 yoki muallif keltirgan 8/4 ko‘rinishida berilishi mumkin; biroq an’anaviy usulning zarblar ketma-ketligi, ijrodagi qaytish nuqtasi va melodik jumla bilan bog‘lanishi alohida tahlilni talab etadi. Tasnif va Tarje’ o‘rtasidagi ayrim ritmik yaqinlik, Gardun, Muxammas va Saqilning o‘ziga xos davriy tuzilishi adabiyotlarda ham muhokama qilingan [5, 8–9-b.; 6, 41–43-b.]. Doira usullariga doir umumlashtirilgan ma’lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

Jadval. 1.

Mushkilot qismi	Muallif matnidagi tavsif	Metodik yondashuv
Tasnif	Kirish xarakteri va metroritmik barqarorlik	Asosiy puls va melodik tayanchni birgalikda anglash
Tarje’	Qaytarish va o‘tish vazifasi	Tasnif bilan umumiylik va farqni eshitib ajratish
Gardun	Murakkab ritmik harakat	Zarb guruhlari va davr chegarasini mustaqil mashq qilish
Muxammas	Kengaygan ritmik tuzilma	Davomli davrni bo‘laklab o‘zlashtirish
Saqil	Vazmin va salmoqli ifoda	Sekin sur’atda urg‘u va nafasni yo‘qotmaslik

Izoh: Jadvalda o‘quv mazmuni muallif matnidagi vazifalar asosida umumlashtirildi; unda doira usullarining to‘liq notaviy formulalari o‘rnini bosuvchi sxema taqdim etilmaydi.

Doira usullarining badiiy va emotsional talqini: Ko‘p yillar davomida maqom tinglovchilari bilan bevosita muloqotda bo‘lish asnosida to‘plagan shaxsiy tajribamizga tayanib, quyidagi muhim xulosaga keldik: doira cholg‘usi sadosi ostida kechgan lahzalarda ruhiy tushkunlik holatida bo‘lgan insonlarning ko‘zlarida porlash, yuzlarida ochiqlik paydo bo‘lganini, g‘amgin nigohlar quvonchga to‘la jilmayishga aylanganini ko‘p bora kuzatdik. Bu tajribalar orqali doira sadosining inson psixologiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega ekanini anglash mumkin.

Doira nafaqat ritmik vosita, balki ruhiy iqlim yaratishning kuchli manbaidir. Masalan, Saraxbor asari “zarbul qadim” deb ataluvchi og‘ir va tantanavor usulda ijro etilganda, unda salobat va ichki barqarorlik kayfiyati ustuvorlik kasb etadi. Aynan shu kuy soqiynoma yoki ufori kabi jonli usullarda chalinadigan bo‘lsa, ohangning umumiy ruhi sezilarli darajada o‘zgarib, musiqaga shodlik, ko‘tarinkilik nafasi kirib keladi.

Muallifning tinglovchilar bilan muloqotida shakllangan shaxsiy kuzatuvlari musiqaning hissiy ta’sirini tushunishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, alohida qayd etilmagan subyektiv taassurotlar doira sadosining ruhiy holatga doimiy va o‘lchangan ta’siri haqida umumiy ilmiy xulosa chiqarishga yetmaydi. Badiiy ta’sirni kelgusida o‘rganish uchun tinglovchilar soni, ijro sharoiti, tanlangan maqom va kuzatish mezonlari qayd etilishi kerak.

Ta’lim jarayoni uchun metodik takliflar: Birinchi bosqichda talaba doira usulini ustoz ijrosidan tinglab, undagi asosiy zarb va pauzalarni belgilaydi. Ikkinchi bosqichda “bum”, “bak” kabi bo‘g‘inlar orqali ritmik davrni talaffuz qiladi. Uchinchi bosqichda shu shaklni doirada sekin sur’atdan boshlab mustaqil bajaradi; to‘rtinchi bosqichda esa sozanda yoki xonandaning maqom jumlasiga moslab jo‘rnavozlik qiladi. Ushbu ketma-ketlik notaning o‘zini yodlash emas, ohang va usulning o‘zaro mantiqini eshita olishga xizmat qiladi.

Baholashda faqat zarbning kuchi va tezligiga tayanish yetarli emas. Doira partiyasining kuyni to‘sib qo‘ymasligi, ijroning ichki pulsatsiyasini ushlab turishi, pauzalarni joyida berishi hamda avj jarayonida dinamika bilan mutanosib bo‘lishi birgalikda kuzatilishi lozim. Mazkur mezonlar Shashmaqom merosidagi san’atkorona jo‘rnavozlik mohiyatini o‘quvchiga amaliy tarzda anglatadi [5, 8–9-b.; 6, 43–45-b.].

XULOSA. Olib borilgan tadqiqotlar va darslik doirasidagi amaliy notalashtirish ishlari shuni ko‘rsatadiki, doira ijrochiligi oddiy texnik harakatlar yig‘indisi emas, balki kuchli psixologik va madaniy ta’sir manbaidir. Doira usuli – Shashmaqomning barcha asarlarini ichki tartibga soluvchi, ularni metrik-mantiqiy izchillikda bog‘lab beruvchi asosiy komponent hisoblanadi. Talabalarga va yosh ijrochilarga maqom asarlaridagi doira partiyalarining strukturasini, usul almashinuvi va dinamik o‘zgarishlarini ilmiy-nazariy hamda amaliy uyg‘unlikda tushuntirish ularning doira cholg‘usidagi kasbiy shakllanishiga to‘laqonli xizmat qiladi.

Demak, usulni o‘rganishda notaviy o‘lchov, eshitiladigan zarb sikli va kuy jumlasining badiiy rivoji uch alohida, ammo o‘zaro bog‘liq sath sifatida tahlil qilinishi kerak. Hududiy mnematik atamalarni saqlash va ijro namunasini eshitib o‘rganish zamonaviy nota savodxonligi bilan birgalikda qo‘llansa, doira ijrochiligi ta’limi mazmunan boyiydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov Sh. Cholg‘u ijrochiligi (Doira): oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Best-publish, 2026. – 114 b.
2. Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent, 2004.
3. O‘zbek xalq muzikasi. I tom / Yu. Rajabiy to‘plagan va notaga olgan; I. Akbarov tahriri ostida. – Toshkent: O‘zadabiynashr, 1959. – 296 b.
4. Rajabov I. Maqom asoslari. – Toshkent, 2019.
5. Samadov R. An’anaviy doira ijrochiligi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2004.
6. Samadov R. Shashmaqom cholg‘u yo‘llarida doira usullari va urma-zarbli cholg‘ularning badiiy xususiyatlari // Journal of National Culture. – 2026. – T. 2, № 2. – B. 39–46. – DOI: 10.64681/6c20db06.
7. O‘zbek maqom dunyosi. «Saraxbor» bo‘limi (Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI ilmiy-ma’rifiy portali). – URL: https://uzbek-maqom.uz/usullar/saraxbor/.

References

1. Nazarov, Sherzod. *Cholg‘u ijrochiligi (Doira): oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun darslik* [Instrumental Performance (Doira): Textbook for Higher Education Students]. Tashkent: Best-publish, 2026. 114 pp. (in Uzbek)
2. Matyoqubov, Otanazar. *Maqomot* [The Maqom Tradition]. Tashkent, 2004. (in Uzbek)
3. Rajabiy, Yunus, comp. and transcr. *O‘zbek xalq muzikasi. I tom* [Uzbek Folk Music. Vol. 1]. Edited by I. Akbarov. Tashkent: O‘zadabiynashr, 1959. 296 pp. (in Uzbek)
4. Rajabov, Ishoq. *Maqom asoslari* [Fundamentals of Maqom]. Tashkent, 2019. (in Uzbek)
5. Samadov, Rahmatulla. *An’anaviy doira ijrochiligi: o‘quv qo‘llanma* [Traditional Doira Performance: A Teaching Manual]. Tashkent, 2004. (in Uzbek)
6. Samadov, Rahmatulla. “Shashmaqom cholg‘u yo‘llarida doira usullari va urma-zarbli cholg‘ularning badiiy xususiyatlari” [Artistic Features of Doira Rhythmic Patterns and Percussion Instruments in the Instrumental Sections of Shashmaqom]. *Journal of National Culture* 2, no. 2 (2026): 39–46. https://doi.org/10.64681/6c20db06. (in Uzbek)
7. O‘zbek maqom dunyosi [Uzbek Maqom World]. “Saraxbor.” Yunus Rajabiy Institute of Uzbek National Musical Art, educational portal. https://uzbek-maqom.uz/usullar/saraxbor/ (accessed November 7, 2026). (in Uzbek)